

OGAHIYNING “JOMI-UL-VOQEOTI SULTONIY” TARIXIY ASARI.

Abdullayeva Ullibibi Qurbonnazarovna
«Ichon-Qal'a» davlat muzey-qo'riqxonasi
Ogahiy uy muzeyi bo'lim mudiri.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ogahiyning “Jomi-ul-voqeoti sultoni” tarixiy asari haqida va asarda keltirilgan voqealar qisqacha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: “Zubdat-ut-tavorix”, “Jomi-ul-voqeati sultoni”, Muhammad Aminxon, Marv, Seraxs, Sayyid Abdulloxon, Muhammad Yaqub Mehtar.

OGAHI'S HISTORICAL WORK "JAMI-UL-VAQEOTI SULTANIY".

ABSTRACT

This article provides a brief overview of Ogahi's historical work "Jami-ul-vaqeoti sultani" and the events mentioned in the work.

Keywords: “Zubdat-ut-tavorix”, “Jomi-ul-voqeati sultoni”, Muhammad Aminxon, Marv, Seraxs, Sayyid Abdulloxon, Muhammad Yaqub Mehtar.

Bu tarixiy asarning ikkita qo'lyozmasi mavjud. Biri Sankt-Peterburgda, ikkinchisi O'zbekiston fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi.

“Jomi-ul-voqeati sultoni” da Xorazmda Muhammad Aminxon hukmronlik qilgan davr (1846-1855) da ro'y bergan voqealar bayon etiladi.

Ogahiy Rahimqulixon saltanati davriga bag'ishlangan “Zubdat-ut-tavorix” asarini yozib tugatgach, uni Muhammad Aminxonga taqdim etadi. O'z navbatida, yangi hukmdor Ogahiyga o'z davri voqealari to'g'risida asar yozish vazifasini yukladi. Bu haqda muarrix bunday yozadi. “So'ngra bu kitobim yozishg'a boshladim va uni “Jomi-ul-voqeati sultoni” deb atadim.

Bu asarda yozilishicha 1847-yilda Ogahiy Muhammad Aminxon bilan birgalikda Ko'hna Urganchga sayohat qiladi va xonni topshirig'i bilan “Xon-yop” kanali qazishni va bog' qilishni buyuradi. Bu davrda Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirib, ko'hna Urganch haroba ahvolga kelib, Cho'l holatda bo'lgan.

“Suv olib kelgan elda aziz” maqoliga asosan Ogahiy boshchiligida “Xon-yop” kanali qaziladi va cho'l bo'lib yotgan yerlar bog'-bo'stonga aylantiriladi.

“Xon-yop” kanalini qazilishida Ogahiy o'zi bosh bo'lib turadi. Tarixdan malumki qazuvda yoplarni qazish-yilda 2 marta 12 kun bahorda, 12 kun kech kuzda bo'lgan. Birinchi qazuvni xonni o'zi boshlab bergan, har bir oiladan bitta erkak belida

bog'langan oziq-ovqati bilan hamda bel kuragi bilan qatnashish majburiy bo'lgan. Uni "Bey-yor" deb ataganlar, shundan naql qolgan "Bey-yorga borsam yetar, iring'ansam kunim o'tar". Shu bey-yorni ham xonni o'zi boshlab bergan, kim xonni qo'lidan belkurakni olsa shunga chapon va tilla mukofot berilgan.

Muhammad Aminxon hukmronligi davrida ham Janubiy Turkmaniston va Xurosonda tinchlik hukm surmay, xonga qarshi isyonlar davom etdi. Ayniqsa, Marv va Seraxs shaharlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar hokimiyatni larzaga keltirdi. Qo'zg'olonchilar Xorazm xoniga bo'ysunishdan bosh tortib, xon amaldorlari va soliq yig'uvchilarni tutib qatl qildilar. Tarixchi Ogahiy malumotlariga ko'ra, Muhammad Aminxon Marv va Seraxs uchun o'n marotaba yurish qilgan, 1854-yilda Marv qo'zg'oloni bostiriladi. 1955-yil Seraxs ostonasida turkmanlar bilan Xorazm lashkarlari o'rtasida bo'lgan jangda Xorazm qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Muhammad Aminxon, uning o'n to'rt nafar shahzodalari fojeali halok bo'ldilar.

1855-yil Undan keyin Xiva taxtiga o'g'li Sayyid Abdulloxon (besh yarim oy – 1855-yil 20 mart – 27 avgust) taxtga o'tiradi. Ammo, bir guruh saroy amaldorlari Sayyid Abdullaxonni tan olmasdan unga qarshi fitna uyushtirib, yovmut turkmanlari bilan aloqa o'rnatdilar hamda ularni isyonga chorladilar. Yovmutlar isyon ko'tarib G'ozovot va Ilonli atroflarida qishloqlarni talay boshladilar. Sayyid Abdullaxon xonlikdagi fitnachilarni fosh qilib, uning ishtirokchilarini qatl ettirgach, isyonchilarga qarshi kurash boshladi. Dastavval, Xonlik qo'shinlari bilan bo'lgan jangda yovmutlar mag'lubiyatga uchrab dasht ichkarisiga chekingan bo'lsalarda, yoz oylarining oxirida yovmutlar xonlik navkarlari qarorgohiga (Ilonli yaqinida) to'satdan tunda hujum qildilar. Bu hujumda xonlik navkarlari mag'lubiyatga uchrab, Sayyid Abdullaxon ham o'ldiriladi. Umuman, Xiva saltanati tarixidagi bu davr o'zaro toju taxt uchun talashuvlar, xunrezliklar, fitna-fasodning avj olgan zamoni hisoblanadi.

Bu voqeadan keyin saroydagi vazir Muhammad Yoqub mehtar boshchiligidagi bir guruh amaldorlar Sayyid Abdullaxonning o'n yetti yashar ukasi Qutlug' Murodni xon qilib ko'taradilar. Sayyid Abdullodan so'ng Xiva taxtiga kelgan Qutlug' murod ham mamlakatda tinchlik o'rnatishga muvaffaq bo'la olmaydi. Xorazm xonlarining xos amirlaridan bo'lgan Muhammad Niyozbiy ham mazkur notinchlik holatidan foydalanib, taxtni egallashga harakat qiladi. U qabih maqsadini amalga oshirish uchun turkmanlar bilan til biriktiradi. Yoqub mehtar va Ibrohim Qushbegi davlat boshqaruvida xonning eng yaqin kishilari edilar. Bu orada xonlikdagi siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. Qutlug' Murodga bo'ysunmagan turkman yovmutlari Ota Murodni, qozoq va qoraqalpoqlar Jorliq To'rani o'zlariga xon deb elon qildilar. Qutlug' Murod ularning isyonlarini qiyinchilik bilan bostirdi. Ammo, uning hukmronligi ham uzoq cho'zilmadi.(to'rt yarim oy). Qutlug' Murod o'z akasi Niyozbek Muhammad tomonidan hiyla ishlatilib uyushtirilgan fitna (yovmut turkmanlari yordamida) natijasida o'ldirildi.

Ogahiy “Jomi-ul-voqeoti sultoni”da bu haqda bunday malumot beradi: “..turkmanlarga vada ettikim, agar sizlarning yordamingiz bilan saltanat menga yetushsa, qilgan xizmatlaringiz uchun uch kun muddatgacha shahar xalqining asbob va nuqud, mol va ashyosin g‘orat va toroj qilurg‘a ruxsat berurman, balki barcha ishda sizlarni sohib ixtiyor qilurman”.

Ko‘rinib turibdiki, Muhammad Niyozbiy o‘z manfaati yo‘lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, bu yo‘lda eng ezgu tuyg‘ularni qurbon qiladigan kimsa. Yangi xon Qutlug‘ Murod bilan o‘zaro sulh tuzishga kelishgan Muhammad Niyozbiy fursatni g‘animat bilib, xonni xanjar urib o‘ldiradi.

Ogahiyning yozishicha, xonga suiqasd uyushtirilgandan so‘ng vazir Muhammad Yaqub Mehtar yovmutlarga qarshi qirg‘in boshlab yubordi. Buning natijasida shu qadar ko‘p kishi o‘lganki, ko‘chalar, mahallalar va bozorlar o‘likka to‘lib ketgan. Xalq bir haftagacha uydan chiqa olmay, bir-birinikiga borish rasmini unutgan.

“Jomi-ul-voqeoti sultoni” da Muhammad Aminxon adolatsizliklari bilan boshlangan bazi tartibsizliklar shu darajadagi xunrezliklarga olib keldi.

Masalaning yana bir muhim jihatini takidlash lozimki, Ogahiy tarixchi sifatida doimo halol yo‘l tutgan. Xorazm xonlarining ijobiy xususiyatlarini aytish barobarida, salbiy jihatlarini ham ochiq bayon etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркистана. –Л., 1927. – С. 113
2. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи хоразмшоҳий. Тошкент, мерос. 199
3. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2012. 344-345-бб.
4. Сагдуллаев А. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. Тошкент, Маънавият, 2000. 241-б.